

MAKTABLARDA FONETIKA VA GRAFIKA O'QITISH USULLARI

Yo'ldasheva Sarvinoz Baxtiyor qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

o'zbek tili va adabiyoti fakultet talabasi

Annotatsiya: Ushbu ishda maktablarda fonetika va grafika bo'yicha ta'lif berish jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan usullar yoritilgan. Fonetika – nutq tovushlarini o'rjanadigan tilshunoslik sohasi sifatida, talaffuz, urg'u, intonatsiya kabi elementlarni to'g'ri shakllantirishga xizmat qiladi. Grafika esa yozuvdagi harflar va ularning tovushlar bilan bog'liqligini o'rgatadi. Annotatsiyada bu ikki yo'nalish bo'yicha o'quvchilarga bilim berish metodikalari, dars jarayonida qo'llaniladigan innovatsion yondashuvlar, audio-vizual vositalardan foydalanish, interfaol usullar orqali o'quvchilarining fonetik va grafik bilimlarini mustahkamlash yo'llari haqida so'z boradi. Ishda shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga mos metodlar va o'qitishning bosqichma-bosqichligi muhim o'rin egallaydi.

Kalit so'zlar: fonetika, grafika, o'qitish usullari, maktab ta'lifi, talaffuz, yozuv va tovush mosligi, boshlang'ich ta'lif, interfaol metodlar, lingvistik kompetensiya, audio-vizual vositalar

METHODS OF TEACHING PHONETICS AND GRAPHICS IN SCHOOLS

Yuldasheva Sarvinoz Bakhtiyor daughter

Faculty of Uzbek Language and Literature of

Jizzakh State Pedagogical University

Annotation: In this case, there are ways to increase the efficiency of the phonetics and graphics process in the schools. Phonetics - as a linguist, the linguistics of the speech, serves to correctly formulate elements such as pronunciation, emphasis, an integration. The

graphics teaches that the letters in the scripture and their sounds. In the annotation, students will discuss ways to teach students in these two areas, the use of innovative approaches, the use of innovative approaches, and used in interactive methods, and strengthening the branterns and graphic knowledge of students through interactive methods. The work also plays an important role in the young characteristics of primary school students, and the gradual training.

Keywords: phonetics, graphics, teaching methods, school education, pronoun, recorder, primary education, interactive methods, linguist captures, audio-visual means

KIRISH

Til — inson tafakkuri, madaniyati va jamiyat taraqqiyotining asosi hisoblanadi. Tilshunoslikning muhim bo‘limlaridan biri bo‘lgan fonetika va grafika boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning savodxonligini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Fonetika nutq tovushlari, ularning hosil bo‘lishi, talaffuzi va kombinatsiyasi bilan shug‘ullansa, grafika bu tovushlarning yozuvdagi ifodasini, ya’ni harflar va ularning shakllanishini o‘rganadi. Shu sababli, fonetika va grafikani o‘rgatish orqali o‘quvchilar tilni to‘g‘ri talaffuz qilish, aniq yozish va fikrni ravon ifoda etish ko‘nikmalarini egallaydi. Ushbu ishda maktablarda fonetika va grafika o‘qitishning samarali usullari, bu boradagi metodik yondashuvlar, o‘qitish jarayonida duch kelinadigan muammolar va ularni hal etish yo‘llari tahlil qilinadi. Shuningdek, dars jarayonida innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlar va o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos yondashuvlar asosida fonetik va grafik kompetensiyani shakllantirishning ahamiyati ochib beriladi.

Mamlakatimizda ta’limning eng asosiy zamini hisoblanuvchi umumiyligi o‘rtalama maktablari uchun Milliy o‘quv dasturi ishlab chiqildi va “Milliy o‘quv dasturi” deb nomlanishi biz yosh pedagoglarga katta umidlar baxsh etmoqda. Shuningdek, o‘zbek tilini o‘qitish metodikasini tubdan isloh qilish, ayniqsa respublikamiz hududida istiqomat qiluvchi barcha millatlar o‘zbek tilini jadal o‘rgatishni ta’minlaydigan zamonaviy darsliklar yaratish hozirgi kunning eng dolzarb vazifalaridan biriga aylandi. Shu paytgacha Ona tili va O‘qish fanlari alohida o‘qitilar edi. Bu ikki fanni birlashtirgan yangi

“Ona tili va o‘qish savodxonligi” deb nomlangan yagona fan dars soati saqlab qolning holatda tashkil etiladi. Boshlang‘ich ta’limning ona tili fani o‘quv dasturi o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan. Davlat ta’lim standarti talablaridan kelib chiqib tuzildi. Ushbu o‘quv dasturida 1-4-sinf o‘quvchilarida tayanch hamda fanga oid (nutqiy va lingvistik) kompetensiyalarning elementlarini shakllantirish ko‘zda tutilgan. Boshlang‘ich ta’limda – o‘quvchilarning savodxonligini ta’minlash, ularni og‘zaki va yozma nutqida adabiy nutq me’yorlariga rioya qilishga o‘rgatishdan iborat. Boshlang‘ich ta’limda-o‘quvchilarning savodxonligini ta’minlash, ularni og‘zaki va yozma nutqida adabiy nutq me’yorlariga rioya qilishga o‘rgatishdan iborat. Mazkur ona tili o‘quv dasturi quyidagi bo‘limlarni o‘z ichiga oladi:

1.Savod o‘rgatish va nutq o‘stirish.

2.Fonetika, grammatika, imlo va nutq o‘stirish. ”Fonetika” bo’limining izchil kursi ”Fonetika va grafika ”, ”Nutq tovushi va harf”, ”Unli tovushlar”, ”Undosh tovushlar”, ”Nutq a’zolari”, ”Lab tovushlari”, ”Til tovushlari”, ”Burun tovushlari”, ”Bo’g’iz tovushi”, ”Nutq tovushlarining ma’no farqlash vazifasi” singari mavzularni o’z ichiga qamrab oladi. ”Nutq tovushi va harf” mavzusini o’tishda o’qituvchi ayrim so’zlarni o‘quvchilar diqqatiga havola etib, bu so’zdagi tovushlarning talaffuzini qiyoslash, unlilar va undoshlarning xususiyatlarini aniqlash, ularning talaffuzida ishtirok etadigan nutq a’zolarini belgilashni topishlari mumkin. O’qituvchi savod o‘rgatish jarayonida o’zbek tilining fonetik xususiyatlarini hisobga olgan holda, o‘quvchilarni tovush va harflar bilan tanishtirish, ularni sintezlab o‘qishga o‘rgatishi zarur. Savod o‘rgatish analitiksintetik tovush metodiga asosan olib boriladi. So’z bo’g’inga bo’linadi, bo’g’indan kerakli — o’rganilayotgan tovush ajratilib olinadi, tahlil qilinadi, o’rganiladigan harf bilan sintezlanadi, shu asosda harf va butun o‘qish jarayoni o’zlashtiriladi. Savodga o‘rgatish davrida o‘quvchilarga avval unli tovushni o‘rgatishdan boshlanadi. Dastlab unli yozilishi talaffuziga mos keladigan so’zlar tanlanadi. Bolalarni yozuvga o‘rgatishda so’z tarkibidagi harflarning to’g’ri, aniq yozilishi va qo’shilishiga daftarlarni ozoda tutishga bolalar e’tibori tortiladi. O’qituvchining savod o‘rgatish davrdagi darslarni to’g’ri tashkil etishi, o‘quvchilarning fonetik va grafik bilimlarni kelgusida puxta

egallahlariga zamin yaratadi. O'qituvchining bu sohadagi yutuqlarilari uning dars o'tish usullari, mahorati, darsda qo'llaydigan didaktik materiallarga ko'p jihatdan bog'liqdir. Intefao'l dars jarayonini tashkillashtirish, o'quvchilarning dars davomida faollashuviga, ularni darsni o'zlashtirish ko'rsatkichlarini o'sishiga sabab bo'ladi. O'qituvchi dars o'tish jarayonida o'quv materiallarining ma'lum bir qismi o'quvchilar tomonidan mustaqil o'rganiladi, so'ngra sinfda har tomonlama muhokama etiladi. Bu esa o'quvchilarning o'tilgan mavzuni puxta egallahlariga zamin yaratadi. Inrefao'l usullar xilma-hil bo'lib, qaysi metodni tanlash o'qituvchining o'tayotgan mavzusi, darsning maqsadi va vazifalariga bog'liq. Buning uchun o'qituvchi doimo yangiliklar izlanishi, har darsda yangi-yangi usullarni qo'llashi, o'z bilimini doimiy ravishda oshirib borishi lozim. Savodga o'rgatish davrida o'quvchilar bilan didaktik o'yinlar o'tkazishga alohida e'tibor qaratish lozim. Xususan, "Ranglar so'zlaganda", "O'zingni yelpi", "Olma terish", "Kungaboqar", "Ko'zgu", "Super lotto", "Piramida", "Aksini toping", "Poyezd", "O'zbekiston mevalari", "Ot va uning bolasi toychoq", "Rolli o'yin", "Ekskursiya", "Chechanlik" kabi didaktik o'yinlar shular jumlasidandir. Darslikka jumboqli topshiriqlarning kiritilishi o'quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantirishda, ularni topqirlikka va bilimdonlikka undashda katta ahamiyatga ega. Shuningdek, turmushda bola nutqida faol qo'llanadigan yoki ularga yaxshi tanish bo'lgan "ma", "ma-na", "nom", "ni-ma" (16-bet) kabi ba'zi so'zlarning darslikka kiritilishi ham, avvalo, alifbe davrining boshlang'ich bosqichida o'quvchilarda muayyan harf-tovushga oid bilimlarni mustahkamlashda, ularga tavsiya qilinayotgan o'quv materiallarining yetarli darajada bo'lishiga, ya'ni ko'proq so'z o'qish imkoniyatini hosil qillishga, qolaversa, ish-harakatni bildiruvchi so'zlar (fe'l)ga oid boshlang'ich amaliy bilimlarni vujudga keltirishga qaratilgan.. O'qituvchi darslik materiallari bilan cheklanib qolmay, ushbu so'zlar mazmunini to'liq izohlashda turli mazmunli rasmlardan ijodiy foydalanishi maqsad muvofiqdir.

Didaktik o'yinlar nazariy amaliy, jismoniy, rolli, ishchanlik va boshqa yo'nalishdagি turlarga ajratiladi. Ular o'quvchilardagi tahlil qilish mantiqiy fikrlash, tadqiq qilish, hisoblash, o'lchash, yasash, sanash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror

qabul qilish, guruh yoki jamoa tarkibida ishlash, nutq o'stirish, til o'rganish, yangi bilimlar olish faoliyatini rivojlantiradi. O'qituvchi boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan barcha fanlarga oid darslarda so'zni aniq va to 'g 'ri talaffuz qilish ustida doimiy ishlab boradi, shu maqsadda ko'pincha so'zni tovush tom ondan tahlil qilishdan foydalanadi.²³ Maktab dasturiga muvofiq, boshlang'ich sinf o'quvchilari fonetikgrafik ko'nikm alar tizimini hosil qiladilar: tovushlar va harflar, unli va undosh tovushlar, jufti bor jarangli va jarangsiz undoshlar, jufti yo'q jarangli va jufti yo'q jarangsiz undoshlar; so'zni bo'g'lnarga bo'lish, urg'uli bo'g'inni talaffuzga ko'ra amaliy farqlash ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Bolalar mакtabga kelgunga qadar ham nutqning tovush qurilishini amaliy o'zlashtiradilar, ammolar maxsus o'qigunlariga qadar so'zni bo'g'lnarga bo'lishni, so'zdagi tovushlami izchil talaffuz qilishni bilmaydilar. 1 sinf o'quvchilarida so'zni to'g'ri talaffuz qilish, bo'g'lnarga bo'lish, undagi har bir tovushni tartibi bilan aniq aytish ko'nikm asini shakllantirish ustida maqsadga muvofiq ishslash, o'z navbatida, analiz, sintez, taqqoslash, guruhlash kabi aqliy mashqlarni bilib olishga, shuningdek, tovushlarning tabiatini, so'z tarkibida bir-biriga ta 'siri kabi ayrim elem entar bilimlarni o'zlashtirishga imkon beradi I sinfda fonetika va grafikani o'rganishga katta o'rin beriladi, chunki o'quvchilar o'qish va yozish jarayonini shu sinfda egallaydilar. Bu bilimlar keyingi sinflarda mustahkamlanadi, takomillashtiriladi. Tovushlar va harflar, unli va undosh tovushlarning xususiyatlari bilan tanishtirish Tovush murakkab tushuncha bo'lgani uchun boshlang'ich sinflarda unga ta 'rif berilmaydi. Shunga qaramay, bolalarda tovush haqida to'g'ri ilmiy tasavvur amaliy mashqlar yordamida hosil qilinadi. Bunda yetakchi usul so'zdagi tovushlarning talaffuzi hamda so'zning leksik ma'nosi so'zdagi tovushlarning tarkibiga bog'liqligi ustida kuzatish hisoblanadi. Masalan, aka, uka, opa, ona, ola, kul, gul, qora, qarakabi bir unli yoki bir undosh bilan farqlanadigan so'zlar har xil lug'aviy ma'noni ifodalaydi. Ma'lumki, nutq tovushlari ikki katta guruhga bo'linadi: unli tovushlar va undosh tovushlar. Buni o'quvchilarga tushuntirishda ularning quyidagi belgilari hisobga olinadi:

- 1) talaffuz qilinish usuli (unli tovush talaffuz qilinganda havo oqimi og'iz bo'shlig'idan erkin ravishda o'tadi, undosh tovush talaffuz qilinganda, havo og'iz bo'shlig'ida to'siqqa uchraydi);

2) ovoz va shovqinning ishtiroki (unli tovushlar faqat ovozdan iborat, undosh tovushlar talaffuz qilinganda shovqin eshitiladi, ba'zan shovqin va qisman ovoz eshitiladi);

3) bo'g'in hosil qilish xususiyati (unli tovushlar bo'g'in hosil qiladi, undosh tovushlar bo'g'in hosil qilmaydi). O'quvchilar bu belgilarni yodlab olishlariga yo'l qo'ymaslik, aksincha, 1sinfdanoq bolalarda tovushni talaffuz qilganda, ovoz yoki shovqin eshitilganda nutq a'zolarining vaziyatini kuzatish ko'nikmasini o'stirib borish lozim. Bunday kuzatishlar 4-sinfda davom ettiriladi va umumlashtiriladi. Tovushlar o'zlashtirishga bunday yondashish, unli va undosh tovushlari puxta o'zlashtirishga imkon berishi bilan birga, o'quvchilaming aqliy qobiliyatini o'stirish vazifasini ham bajaradi; xususan, bolalar kuzatilgan hodisaning bir necha belgilarini taqqoslashga, umumlashtirishga o'rganadilar.

XULOSA

Fonetika va grafikani maktabda o'qitish – o'quvchilarning tilga oid asosiy bilimlarini shakllantirishda muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu ikki yo'naliш o'zaro uзвiy bog'liq bo'lib, fonetika orqali nutq tovushlari va ularning talaffuzi, grafika orqali esa bu tovushlarning yozuvdagi ifodasi o'rgatiladi. Dars jarayonida fonetika va grafikani samarali o'qitish uchun interfaol metodlar, vizual va audio vositalardan foydalanish, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olish zarur.

Xulosa qilib aytganda, fonetika va grafika bo'yicha chuqr va izchil ta'lim berish natijasida o'quvchilarda to'g'ri talaffuz, savodli yozuv, nutq madaniyati va fikrni aniq ifoda etish ko'nikmali shakllanadi. Bu esa nafaqat o'quvchilarning til kompetensiyasini rivojlantiradi, balki ularning umumiyl tafakkur va muloqot madaniyatiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, bu sohadagi o'qitish usullarini takomillashtirib borish va amaliyotga joriy etish dolzarb vazifalardan biridir.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev.Toshkent shahri,2019 yil 21 oktabr O'ZA.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi qarori. – “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017-yil, 21-aprel.

3. <https://fayllar.org/ona-tili-fanidan-oquv-dasturi-1-2-4-sinf-uqtirish-xati.html> 4.

A. G‘ulomov,

M.Qodirov,M.Ernazarova, A.Bobomurodova, N.Alavutdinova,

V.Karimova. Ona tili o’qitish metodikasi. Toshkent -2012.144-bet.

5. Alifbe Metodik qo’llanmaRohatoy Safarova, Muhayyo Inoyatova, Mirhabib G‘ulomov.